

ITALYAN MULOQOT MATNIDA VERBAL HAMDA NOVERBAL
MULOQOTNING O'RNI

Sadikova Bahora

SAMDCHTI Ispan italyan kafedrası katta o'qituvchisi

Naimova Parvina

SAMDCHTI magistranti

Muloqot bu barcha xalq va millatlarning eng yuqori pog'onalarda turuvchi muhim munosabatdir. Bu munosabat orqali ya'ni muloqot matni orqali shaxslar fikrlarini bayon qiladilar, o'zaro fikr amlashadilar va yangidan- yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Inson miyasida mavjud bo'lgan, dunyoga kelgan barcha fikrlarni til orqali muloqotda namoyon etadi.

Italyan xalqi ham muloqotni sevuvchi xalqlar sarasiga kiradi. Ularda muloqot jaroyonida hurmat har qanday holatda ham doimo birinchi o'rinda turadi. Ular verbal muloqotdan tashqari, noverbal muloqotni ham faol tarzda amalga oshiradilar. Tadqiqotchilarning fikricha muloqot odamlar orasidagi o'zaro hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinadigan holatdir.

Verbal muloqot ya'ni og'zaki muloqot - so'zlardan foydalanish orqali tinglovchiga ma'lumot uzatadigan to'plam. Asosiy element bu o'zingizni tushunishingiz uchun yoki tushuntirish uchun so'zlarni tanlashdir. Bunda markaziy element muloqot shaklidir. Bu og'zaki, dialoglar, nutqlar va suhbatlar orqali yozmar ravishda, xatlar, electron pochta xabarlarini kitoblar va boshqa yozma ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshirilishi mumkin. Italyan xalqi verbal muloqotda juda ham faol. Ularda hurmat tamoyillari verbal muloqotda juda ham yuqori o'rinda turadi. Masalan hurmat ma'nolarini ifodalovchi keng tarqalgan so'zlar jamlanmasi bo'lib. Ular quyidagilardir.

- Ciao yoki Buongiorno - ushbu so'z Assalomu aleykum yoki xayrli kun ma'nolarida qo'llaniladi.

- Per Favore - iltimos ma'nosida qo'llaniladi. Italiyaliklar xushmuomula xalq bo'lganligi sababli, barcha gaplarida iltimos so'zini oldindan ishlatadilar.

- Scusa yoki Scusi - mi scusi - formal, scusami- informal. Kechirasiz ma'nosida qo'llaniladi. Bunda biron bir narsani so'rayotganda yoki muloqotga kirishyotganda ular ushbu so'zni ko'p ishlatadilar.

- Piacere - bu ham ijobiy holatni ifodalovchi so'z hisoblanadi. Ya'ni xursandman. "piacere di conoscerla" - siz bilan tanishganimdan xursandman.

- Arrivederci yoki arrividerLa - bu xayr yoki ko'rishguncha degan ma'nolarni ifodalaydi. ArrividerLa hurmat ma'nosida, formal holatlarda qo'llaniladi.

Ushbu yuqoridagi so'zlar orqali bilishimiz ham mumkinki ushbu xalq juda ham muomulali va mulozamatli xalq. Verbal muloqotni amalga oshirayotganda doimo hurmat tamoyillariga asoslanadi. Ya'ni iltimos, raxmat, kechirasiz so'zlari diomo muloqot jarayonida keng qo'llaniladi.

Noverbal muloqot bu og'zaki bo'lmagan muloqotdir. Bu ta'na tili deb ham yuritiladi va odamlar o'rtasidagi so'zlardan foydalanmasdan qilingan muloqotdir. Ya'ni to'g'ridan- to'g'ri

yoki biron bir ramziy shaklda taqdim etilgan nutq va til vositalarisiz muloqot bo'lib, bunda intonatsiya, imo – ishoralar, yuz ifodalari orqali ma'lumot uzatib, muloqot qilishdir. Noverbal muloqot verbal muloqotni ta'sirchanligini yanada oshiradi va tushunarliroq, aniqroq ifodalashga xizmat qiladi. . Amerikalik psixolog Albert Mehrabianning so'zlariga ko'ra, bizning muloqot jarayonimiz ya'ni kundalik suhbatlarimizning aksariyati quyidagilardan iboratdir:

7 %- o'g'zaki muloqot

38%- paraverbal muloqot

55%- o'g'zaki bo'lmagan muloqot

Demak aytmoqchi bo'lgan narsani yetkazish uchun gapirishning o'zi kifoya qilmaydi. Haqiqattan ham so'z kam foizni egallaydi.

Italiya xalqi ham noverbal muloqotni sevuvchilar sarasiga kiradi. Ular ta'na tili keng rivojlangan. Verbal muloqot jarayonida ham ular noverbal muloqotni amlaga oshirib muloqot qiladilar. Hech qaysi italyan ta'na tilisiz o'z fikrlarini keng ifodalab berolmaydi. Ular qo'li bog'liq holda yoki yuz ifodalarisiz, mimikalarsiz muloqotga kirisha ololmaydi.

Italyan xalqi orasida quyidagi jestlar ya' ko'p tarqalgan bo'lib, ular noverbal muloqotda keng qo'llaniladi.

- Ko'zlar, lablar va harakatlangan qoshlar – aniqlik, shubha va chalkashlik ma'nolarini ifodalash uchun qo'llaniladi.

- Nigohlar – bu noverbal muloqotdagi kuchli signal bo'lib, sevgi, vasvasa va raqobat ma'nolarini ifodalaydi.

- Ko'zlarni olib qochish – ruhiy tushkunlik, depreziya va xafagarchilikni ifodalaydi.

- Boshni silkitish – bu nafaqat italyan tilida, balki barcha tillarda salomlashish mazmunida qo'llaniladi.

- Tabassum, jilmayib kulish bu muloqot ta'sirchanligini, yoqimlilikini bildiruvchi asosiy vositadir.

Xulosa tarzida shuni aytishimiz mumkinki, muloqot bu insonlar hayoti uchun eng muhim vosita sanaladi. Insonlar muloqot qilish orqali fikrlarni ifodalaydi, yangi bilimlarga ega bo'ladi va nimalargadir tushuncha hosil qiladi. Verbal va noverbal muloqot italyan xalqi orasida chambarchas bog'liqdir, ular ko'p muloqot qiluvchi shaxslar sarasiga kiradi va tana til bu millat orasida keng tarqalgan. Ular katta foizda kun bo'yi noverbal muloqotdan foydalanishadi va bu ularga fikrini to'liq bayon etish, uning ta'sirchanligini oshirish va oson tarzda yetkazib berishga yordam beradi. Muloqot madaniyati ham u yerda yuqori o'rinlarda turadi. Muloqot madaniyatining asosiy belgisi bu tinglashdir. Ya'ni muloqot jarayonida siz sherigingizni ham eshitishingiz va uni fikrlarini hurmat qilishingiz kerak. Italiya xalqi muloqot sevar xalq va o'z fikrlarini to'liq tushuntirib, aniqlikni sevuvchi millatdir. Muloqot nafaqat italyan xalqi uchun, balkim butun xalqlar uchun muhim vositadir. Muloqotsiz til rivojlanmaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Aziza Pulatova. Noverbal muloqotning to‘qqiz turi. T. 2020.
- 2.M. Maxsudova. Muloqot psixologiyasi. T. 2019
3. Guglielmi Anna. Il linguaggio segreto del corpo. La comunicazione non verbale. Wellness, 2019
4. Morelli Roberto. Linguaggio del corpo. 2020.